

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

<i>Bozorboyev Abbasjon, Ravshanov Shavkat</i> <i>KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI MUAMMOLARI</i>	6-9
<i>Iskandarov Orifxon</i> <i>TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI</i>	10-12
<i>Odinayev Mirjalol</i> <i>"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISHDA INNOVATSION YECHIM</i>	13-18

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

<i>Karimov Nurbek</i> <i>TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI</i>	19-22
--	-------

TARIX FANLARI

<i>Bobojonova Zuxra</i> <i>TEMURIY MALIKALARNING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI</i>	23-25
<i>Xalilov Baxodir</i> <i>ZAMONAVIY KUTUBXONALARNING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY VILOYATI MISOLIDA</i>	26-31
<i>Xoliqova Ra'noxon</i> <i>"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI, GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI"</i>	32-34
<i>Xasanova Nargiza</i> <i>YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB AHAMIYATI</i>	35-38

IQTISODIYOT FANLARI

<i>Salomov Temurbek</i> <i>THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR: A CASE STUDY OF UZBEKISTAN</i>	39-43
<i>Raxmanov Ulugbek</i> <i>TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ TAHLILY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH</i>	44-45
<i>Toshtemirov To'liqin</i> <i>KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI</i>	46-49
<i>Mansurova Sayyora</i> <i>INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA ULARNING KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI</i>	50-53
<i>Rajabov Alibek</i> <i>INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH</i>	54-57
<i>Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda</i> <i>EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM GLOBAL EXPERIENCES</i>	58-60

FALSAFA FANLARI

Abdullayev Sodiqjon

MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK

QADRIYATLARI..... 61-66

Gafurova Munajat

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA

DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTIK MUNOSABATLARI..... 67-70

Davronov Bahodir

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHITINING GUMANITAR QADRIYATLARGA

NISBATAN ASIMMETRIK MUNOSABATI..... 71-76

Latipov Sardor

KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI..... 77-81

FILOLOGIYA FANLARI

Xoliyorova To'lg'anoy

O'ZBEK TILI MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMIY TADQIQOTLARDAGI O'RNI..... 82-83

Ro'ziyev Temur

ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNING O'RNI..... 84-92

Gulmuradova Sobira

"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFIKMLARNING MILLIY –

MADANIY XUSUSIYATLARI..... 93-95

Qosimova Malika

SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA..... 96-99

Bahromjonova Shahnoza

HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMIY MEROSI:

FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLIL..... 100-102

Ayimbetova Damekhan

ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI

TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI..... 104-107

YURIDIK FANLARI

Komilov Avazbek

INTIZOMIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QAROR,

UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR..... 108-110

Shamsitdinova Manzura

TEACHING LISTENING COMPREHENSION..... 111-112

Xadjiyev Azizbek

"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOIYILINING XALQARO QONUNCHILIK

AMALIYOTIDA YORITILISHI..... 113-116

Уктамов Комрон

РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ

РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... 117-123

Исмоилов Бехрузбек	
ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	124-129

PEDAGOGIKA FANLARI

Qo'shmurodova Aziza	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....	130-133

Mamatqosimova Nodira	
SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI.....	134-137

Sattoriy Shohruh	
TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138-141

Jabborova Umida	
TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	142-144

Xujanazarova Nozima	
RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARNI YARATISH.....	145-148

Aripjanova Dinora	
RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....	149-151

Dosanova Gulbanu	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....	152-154

Isokov Ravshanbek	
INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....	155-160

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza	
XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RN.....	161-163

Nabiyeva Umida	
GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOIYILLARI.....	164-166

PSIXOLOGIYA FANLARI

Polvanov Rasulbek	
INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH.....	167-172

Усманова Лилия	
ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....	173-176

INNOVATION PROPTech-PLATFORMALAR VA ULARNING KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI

Mansurova Sayyora Baxtiyor qizi

Mustaqil tadqiqodchi

E-mail: sayyoramansurova26@gmail.com

Tel: +998 90 044 04 06

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-8204-3963>

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. O'zbekistonda PropTech texnologiyalarining joriy etilishi ko'chmas mulk bozorini raqamlashtirish jarayonida muhim o'rin tutadi. Mazkur maqolada PropTech platformalarining asosiy afzalliklari, iqtisodiy samaradorligi, zamonaviy baholash usullari (AVM) va ularning bozor shaffofligiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, AQSh va Rossiyadagi amaliyotlar bilan taqqoslovchi tahlil o'tkazilib, O'zbekiston uchun moslashtirilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: PropTech, raqamli baholash, AVM, ko'chmas mulk, bozor shaffofligi, raqamlashtirish, investitsiya, API.

INNOVATIVE PROPTech PLATFORMS AND THEIR IMPACT ON THE REAL ESTATE MARKET

Mansurova Sayyora Baxtiyor qizi

Independent Researcher

Annotation. The implementation of PropTech technologies in Uzbekistan plays a significant role in the digital transformation of the real estate market. This article analyzes the main advantages of PropTech platforms, their economic efficiency, modern valuation methods (AVM), and their impact on market transparency. In addition, a comparative analysis with practices in the USA and Russia is provided, along with adapted recommendations for Uzbekistan.

Key words: PropTech, digital valuation, AVM, real estate, market transparency, digitization, investment, API.

Kirish

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi ko'chmas mulk bozoriga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ana shu jarayonda PropTech (Property Technology) platformalari muhim o'rin egallamoqda. PropTech — bu raqamli yechimlar orqali ko'chmas mulkni baholash, sotish, ijaraga berish, boshqarish va moliyalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvdir. Jahon amaliyotida PropTech texnologiyalari bozor shaffofligini oshirish, bitimlarning xavfsizligi va tezkorligini ta'minlash, hamda turli aktorlar (rivojlantiruvchi, xaridor, bank, davlat organi) o'rtasidagi hamkorlikni osonlashtirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Masalan, AQShda Zillow, Rossiyada sIAN platformalari orqali yuz minglab bitimlar to'liq raqamli formatda amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda raqamlashtirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda — "E-Kadastr", elektron ipoteki tizimlari, RealSoft platformalari shular jumlasidandir. Biroq PropTech'ning to'liq potentsiali hali ishga tushmagan. Ushbu maqolada PropTech platformalarining imkoniyatlari, avtomatik baholash usullari (AVM), iqtisodiy

samaradorligi va bozor tuzilmasiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, AQSh va Rossiya tajribasi bilan taqqoslash orqali O'zbekiston uchun moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda PropTech sohasi bo'yicha xalqaro va mahalliy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. PropTech rivojlanishining uch bosqichi — raqamlashtirish, ma'lumotlar integratsiyasi va blokcheyn asosidagi avtomatlashtirish jarayonlari mavjud. Mualliflar PropTech texnologiyalarining bozor samaradorligi va shaffofligiga ta'sirini tahlil qilib, AI (sun'iy intellekt) va Big Data asosidagi baholash modellarining kelajagini ta'kidlaydilar [Baum va Soul "PropTech 2020" hisoboti; 2020 y.] [11]. Avtomatik baholash modellari (AVM — Automated Valuation Models) real mulk qiymatini aniqlashda an'anaviy yondoshuvlarga nisbatan tezkor va iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi ko'rsatilgan [Kok, N., Monkkonen, P., & Quigley, J. M. (2017), 101–117.] [14]. PropTech'ning 2030 yilgacha bo'lgan istiqbollarini, shu jumladan raqamli kadastr, BIM-texnologiyalar va elektron shartnomalarni joriy etish imkoniyatlarini ko'rsatib o'tilgan [RICS tashkiloti esa o'z hisobotida; 2021 y.] [12].

Tadqiqot metodologiyasi. Metodologiya sifatida maqolada quyidagi yondashuvlar qo'llanildi:

- Sistemali tahlil – PropTech'ning asosiy tarkibiy qismlari, texnologiya platformalari va ularning bozordagi faoliyati tahlil qilindi.

- Solishtirma tahlil (benchmarking) – AQSh (Zillow) [15], Rossiya (SIAN) [13] va O'zbekiston (RealSoft) platformalari o'rtasida funksional va iqtisodiy ko'rsatkichlar taqqoslandi.

- Iqtisodiy tahlil – PropTech joriy etilishi orqali amalga oshirilgan iqtisodiy samara (masalan, xarajatlarni kamaytirish, vaqt tejamkorligi) maxsus formulalar orqali hisoblab chiqildi:

$$ROI = ((E - I) / I) * 100\%$$

bunda:

- E — PropTech platformasidan olingan foyda;
- I — uni joriy etish xarajatlari;
- ROI — investitsiyadan foyda qaytishi ko'rsatkichi.

Bundan tashqari, ssenariy tahlili usuli orqali turli darajada raqamlashtirish holatlaridagi iqtisodiy va ijtimoiy natijalar modellashtirildi. Tadqiqot jarayonida 2020–2024 yillar davomida PropTech joriy etilgan va etilmagan hududlar o'rtasidagi farqlar tahlil qilindi.

Tahlil va muhokama.

PropTech texnologiyalarining joriy etilishi ko'chmas mulk bozorini tubdan o'zgartirmoqda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar vositasida ko'chmas mulkni baholash, boshqarish va sotish jarayonlarida samaradorlik, shaffoflik va tezkorlik ortgan.

1. Samaradorlik va tezkorlik. Zamonaviy AVM (Automated Valuation Models) platformalari vositasida mulkning bazaviy ma'lumotlari (kvadratura, joylashuv, qurilish yili va h.k.) avtomatik ravishda qayta ishlanib, aniq baholash natijalari 5–10 daqiqa ichida yaratiladi. Bu an'anaviy baholashga nisbatan 85% vaqt tejamkorligini ta'minlaydi.

2. Bozor shaffofligi va ma'lumotlar ochiqqligi. PropTech platformalari real vaqtda API orqali kadastr, soliq va ipoteka ma'lumotlari bilan bog'lanadi. Bu esa noqonuniy bitimlar, baholashdagi soxtalik va mutaxassis xatocini kamaytiradi. Rossiyadagi sIAN yoki AQShdagi

Zillow kabi platformalar bitimlar haqida ochiq ma'lumotlarni berib, bozor narxlarini normallashtirishga yordam bermoqda.

3. Qiymat dinamikasi. PropTech joriy etilgan hududlarda bitimlar soni va ulushi ortib borgani kuzatildi. Masalan, Toshkent shahrida 2023 yilda PropTech elementlari joriy etilgan 12ta agentlik faoliyatida 18%ga ko'proq bitim qayd etilgan. Har bir bitimning o'rtacha vaqti 3 kundan 1,5 kungacha qisqargan.

4. Markaziy Osiyo konteksti. Qirg'iziston va Qozog'istonda ham PropTech rivojlanmoqda. Qozog'istondagi Krisha.kz platformasi raqamli ipoteka hamda virtual ko'rik imkoniyatlarini taklif etmoqda. Bu holat O'zbekiston uchun mintaqaviy raqobatda qolmaslik va integratsiyalash imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi [6; B.21.].

5. Xavf-xatar va cheklovlar. Shu bilan birga, PropTech joriy etilishida ma'lum muammolar mavjud. Ular quyidagilardan iborat: raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi (ayniqsa viloyatlarda), qonunchilikda AVM va PropTech yechimlarining huquqiy asoslari yetarlicha aniq emasligi, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoyalashdagi xatarlar.

6. Ssenariy tahlili (qisqacha)

Ssenariy	Bitim soni (oylik)	O'rtacha bitim vaqti	ROI (%)
An'anaviy model	80	3 kun	-
PropTech platformali model	112	1.5 kun	140%

Xulosa va tavsiyalar.

Olib borilgan tadqiqotlar PropTech texnologiyalari ko'chmas mulk bozoridagi samaradorlik, shaffoflik va raqamlashtirish darajasini jadal oshirayotganini tasdiqlaydi. O'zbekiston sharoitida ham PropTech orqali AVM baholash, raqamli shartnoma va elektron kadastr tizimlarining joriy etilishi iqtisodiy samaradorlikka olib kelmoqda. Jumladan: AVM orqali baholash tezligi 12 barobarga oshgan, ROI darajasi 100–140% atrofida bo'lib, investitsiya qaytishi yuqori ekanligi aniqlangan, Raqamli platformalar ishonch darajasini oshirib, sun'iy baholash va korrupsiya xavfini kamaytirmoqda. Shu asosda quyidagi amaliy va strategik tavsiyalar taklif etiladi:

Huquqiy bazani takomillashtirish. PropTech va AVM'ni tan olish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, raqamli baholash natijalarini sud va moliyaviy organlar tomonidan rasman qabul qilish tartibini belgilash, API orqali davlat kadastrlari bilan axborot almashinuvini huquqiy jihatdan kafolatlash.

Infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash. PropTech platformalarini mahalliy shartlarga moslashtirish uchun dasturiy grantlar va subsidiyalar ajratish, "E-Kadastr", "Ipoteka.uz" va "RealSoft" kabi platformalarni o'zaro integratsiyalash, xizmatlarning barcha viloyatlarda ishlashi uchun Internet va axborot texnologiyalariga investitsiyani kengaytirish.

Iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish. AVM xizmatlarini moliyaviy institutlar (banklar, lizing kompaniyalari) uchun majburiy tavsiya sifatida joriy etish, PropTech'dan foydalanuvchi tadbirkorlik sub'ektlari uchun soliq imtiyozlari berish, davlat buyurtmalarida raqamli platformalarni afzal deb bilish (e.g. elektron tenderlarda PropTech integratsiyalangan platformalarga ustuvorlik berish).

Malaka va ta'lim. Baholovchilar, notariuslar, rieltorlar va qurilish muhandislari uchun PropTech asosida qayta tayyorlash kurslarini joriy etish, oliy ta'lim muassasalarida PropTech bo'yicha fanlar va amaliyotlarni kiritish, talabalar va tadqiqotchilar uchun "PropTech akselerator" dasturini tashkil etish.

Xavfsizlik va axborot himoyasi. Ma'lumotlar bazalarini shifrlash va himoyalash standartlarini joriy etish, blokcheyn asosidagi kadastrlar yoki bitimlarni tasdiqlash tizimlarini tadbiq etish, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish bo'yicha qonuniy mexanizmlarni kuchaytirish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Баум А., Соул А. (2020). PropTech 2020: Будущее недвижимости. Said Business School, Oxford University. – 98 б.
2. Kok, N., Monkkonen, P., & Quigley, J. M. (2017). Big Data and Real Estate: From Manual Valuation to Automated Models. Journal of Property Investment & Finance, 35(2), 101–117.
3. RICS (2021). Future of Real Estate: Technology and Data. Royal Institution of Chartered Surveyors. – London.
4. Фаилова М. (2021). Тенденции цифровизации недвижимости в Узбекистане. Журнал «Инновации в строительстве», №3, стр. 45–51.
5. Zhu, J., Zhang, S. (2022). Impact of PropTech on Housing Affordability and Transparency in Emerging Markets. International Journal of Housing Policy, 22(1), 88–103.
6. UN-Habitat (2020). Smart Cities and Urban Innovation in Central Asia: Report on Digital Housing Solutions. <https://unhabitat.org>
7. Mansurova, S. (2023). Innovatsion baholash uslublarida AVM tizimining imkoniyatlari. Tashkent Architecture and Construction Review, №2.
8. PwC & Urban Land Institute (2023). Emerging Trends in Real Estate: Global Outlook. PricewaterhouseCoopers.
9. ЦИАН.Аналитика (2022). Как работает цифровая платформа недвижимости в России. – <https://cian.ru>
10. Zillow Research (2023). Technology Use in Real Estate Transactions in the U.S. – <https://zillow.com/research>
11. Баум А., Соул А. (2020). PropTech 2020: Будущее недвижимости. Said Business School, Oxford University. – 98 б.
12. Kok, N., Monkkonen, P., & Quigley, J. M. (2017). Big Data and Real Estate: From Manual Valuation to Automated Models. Journal of Property Investment & Finance, 35(2), 101–117.
13. RICS (2021). Future of Real Estate: Technology and Data. Royal Institution of Chartered Surveyors. – London.
14. Zillow Research (2023). Technology Use in Real Estate Transactions in the U.S. – <https://zillow.com/research>
15. ЦИАН.Аналитика (2022). Как работает цифровая платформа недвижимости в России. – <https://cian.ru>

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-
jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.